SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/1 (3) 2023

ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: https://scienceproblems.uz

DOI: 10.47390/B1342V3SI1Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/1 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

М У Н Д А Р И Ж А

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Turaev Sherzod Gulboy ugli
SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA'S RESEARCH ETHNIC DESCRIPTION OF "YUZ" TRIBES 8-13

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna
ZAMONAVIY MUZEY ARXITEKTURASI VA LANDSHAFT DIZAYNI INTEGRATSIYASI ("G'ALABA BOG'I" YODGORLIK MAJMUASI ASOSIDA) 14-19

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Нурмуродов Зафаржон Нурмуродович
МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ 20-26

Жаббарова Чарос Аминовна
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШ ЗАРУРИЯТИ 27-32

Nabiev Olimjon Abdisalomovich
FORMS OF PRECARIOUS EMPLOYMENT AND APPROACHES TO ITS ASSESSMENT 33-43

Тошпулатов Даврон Акромович
ИСЛОМ БАНК-МОЛИЯ ХИЗМАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 44-54

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Муминов Алишер Гаффарович
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТГА ЎТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ 55-59

Холмирзаев Нодиржон Низомжонович
ШАҲАРЛАР АҲОЛИСИДАГИ ИНДИВИДУАЛЛАШУВ МУАММОСИ: ТАҲЛИЛ ВА ТАКЛИФЛАР 60-65

Абдураимова Муқаддас Эргашовна
"АВЕСТО"ДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАСИ 66-71

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich, Djumambetova Gulziba Kongratbaevna
COMPARATIVE-TYPOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES 72-75

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich
ALISHER NAVOIY – ULUG' YO'LBOSHCHI 76-82

Бурибекова Шаира Шавкатовна

ЗНАЧЕНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В ПРОЦЕССЕ ЖУРНАЛИСТСКОГО РАССЛЕДОВАНИЯ 83-89

Абдуллаев Акмал Амирович
ЭТНИК ВА МИЛЛИЙ УРФ-ОДАТЛАР ҲАМДА ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ШАКЛЛАНГАН ЖОЙ НОМЛАРИ 90-98

Masharipova Valentina Sergeyevna
THE USE OF PARALINGUISTICS IN JIM BUTCHER'S WORK 99-104

Камолова Санобар Жабборовна
ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ БАДИИЙ АСАРЛАРИДА АНТРОПОНИМЛАР 105-109

Ярматова Мехринисо Азаматовна
ЯЗЫК - НОСИТЕЛЬ КУЛЬТУРЫ 110-117

Rahmonova Sardora Muminjonovna
BIZNES SOHASIDAGI BIRLIKLARNING SEMANTIK ANALIZI 118-123

Samadova Marg‘uba Kuchkarovna, Ziyayeva Muhayyo Usmanjonovna
COMPULSORY METHODS IN TEACHING ESP 124-128

Mansur Yunusov Abdullayevich
NATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION CONSUMPTION IN PUBLIC SERVICES: PROBLEMS AND SOLUTIONS 129-134

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович
ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИ ХАЛҚАРО ҲУҚУҚИЙ ҲИМОЯСИ 135-139

Yakubova Iroda Bahramovna
XORIJIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR VA O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA MUALLIFLIK HUQUQLARINI JAMOAVIY BOSHQARISHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARINING QIYOSIY TAHLILI 140-146

Карамов Мамашариф Жамилович
ЖАМИЯТ ҲАЁТДА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ ЎРНАТШИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ 147-151

Қурбонов Дониёр Давлат ўғли
ВОЯГА ЕТМАГАН ШАХСЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. 152-157

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Umidaxon Abdullayeva G’ulomiddinovna
O‘QUVCHI VA TALABALARNING TABIATGA MA’SULIYATLI MUNOSABATDA BO‘LISHLARIDA EKOLOGIK TA’LIM VA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING AHAMIYATI 158-163

Нурматова Насиба Хошимжановна
ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПАТРИОТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ МОЛОДЕЖИ 164-173

Дилафруз Явкочдиева
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА ТЕХНИКА ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ 174-183

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № S/1 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

10.00.00-Филология фанлари

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Qarshi davlat universiteti,
odilbek.avaznazarov@mail.ru

ALISHER NAVOIY – ULUG‘ YO‘LBOSHCHI

Annotatsiya. Har bir millatning ma’naviy yo‘lboshchilari, ulug‘ ustozlari bo‘ladi. Alisher Navoiy o‘zbek xalqi uchun ana shunday maqomdagi siymolardan biridir. U nafaqat o‘lmas asarlari bilan, balki tiriklik chog‘ida amalga oshirgan xayrli ishlari, amallari, shuningdek, oliyjanob fazilatlari, xulq-atvori bilan asrlar davomida millatni Haq yo‘lga boshlab kelmoqda. Maqolada ana shu masalaga diqqat qaratiladi.
Kalit so‘zlar: Haq yo‘l, yo‘lboshchi, fazilat, axloq, komillik, islom, tasavvuf.

Авазназаров Одилжон Раҳматуллоевич,
доктор философии по филологии,
Каршинский государственный университет
odilbek.avaznazarov@mail.ru

АЛИШЕР НАВОИ – ВЕЛИКИЙ ЛИДЕР

Аннотация. У каждого народа есть духовные лидеры и великие учителя. Алишер Навои – одна из фигур такого статуса для узбекского народа. Не только своими бессмертными трудами, но и своими добрыми делами и поступками при жизни, а также своими благородными качествами и поведением он веками ведет нацию по верному пути. Статья посвящена этому вопросу.
Ключевые слова: правильный путь, руководство, добродетель, нравственность, совершенство, ислам, суфизм.

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich,
Doctor of Philosophy in Philology,
Karshi State University
E-mail: odilbek.avaznazarov@mail.ru

ALISHER NAVOI IS A GREAT LEADER

Abstract. Every nation has spiritual leaders and great teachers. Alisher Navoi is one of the figures of such status for the Uzbek people. Not only with his immortal works, but also with his good deeds and deeds during his lifetime, as well as with his noble qualities and behavior, he has been leading the nation to the right path for centuries. The article focuses on this issue.
Key words: Right path, guide, virtue, morality, perfection, Islam, Sufism.

https://doi.org/10.47390/B1342V3SI1Y2023N11

“Farhod va Shirin”da Chin xoqoni o‘g‘li Farhodga shunday deydi:

Seni dono demak yoxud xiradmand,

Demakdurkim achig‘ maydur, chuchuk – qand [2;402].

Navoiyning buyukligi ham shunday – mayning achchiq, qandning shirin ekani kabi barchaga ayon! Bu buyuklikning sabablaridan biri, shubhasiz, allomaning oliyjanob fazilatlari, go‘zal axloqidir.

“Qur’oni Karim”ning Qalam surasi 4-oyatida Muhammad s.a.v.ga qarata “Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!” deyiladi. Ulug‘ mutasavvif Ibn Arabiy o‘z tafsirida bu oyatda payg‘ambarimizning Allohning axloqi bilan xulqlanganliklari nazarda tutilganini ta’kidlaydi. Hadisi sharifda keltirilishicha, “Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam odamlarning eng yuzi chiroylisi va eng xulqi go‘zali erdilar” [14;1330].

Payg‘ambarimizning (s.a.v.) o‘zlari bu xususda: “Men makorimi axloq (oliyjanob xulqlar)ni mukammal qilish uchun yuborilganman”, – deganlar va “Darhaqiqat sizlarning yaxshingiz – xulqi yaxshingizdur!” – deb marhamat qilganlar.

Avvalo, axloq tushunchasi mohiyati xususida. Axloq – kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlari yig‘indisi; har bir inson tan oladigan etik qadriyat; inson mavjudligini ta’minlash, uni tarbiyalash, tartibga solish va boshqarishning o‘ziga xos usuli [18;49]. *Vijdon, iymon, adolat, aql, birlikka intilish, bunyodkorlik, hayo, or, burch, mas’uliyat, yaxshilik, rahm-shafqat, g‘amxo‘rlik, mehr-oqibat, beminnat yordam, sadoqat, vafo, muhabbat, qanoat, saxovat, ilm-ma’rifat, himmat, xoksorlik, adab, karam, qanoat, ishq, rostgo‘ylik* kabi ijobiy sifatlar go‘zal axloqqa xosdir. Musulmon Sharqi kishilarining axloqiy fazilatlari asosan islom va islomiy tasavvuf asosida shakllangan. Qolaversa, islom dunyosining buyuk siymolari hayot yo‘li, qarashlari insonlar uchun asosiy dasturul amal bo‘lib kelmoqda [4].

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Allohning necha ming payg‘ambar, avliyo va hikmat egalarini yuborishdan maqsadi – insoniyatning axloqini bezash va siyratini yaxshilash, go‘zallashtirishdir. Shu ma’noda aytganda, hazrat Alisher Navoiy shaxsiyati bilan ham, ijodi bilan ham ana shu missiyaga xizmat qilgan siymolardan biridir. Bu da’voni u kishining bolalikdan vafotiga qadar bosib o‘tgan hayot yo‘li hamda ijodi to‘laligicha tasdiqlaydi.

Navoiyning o‘tkir zehni, go‘zal xulqi bolalik chog‘ida Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiyning duosiga sazovor bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Navoiyning zamondoshi va yaqin shogirdi Xondamir “Makorimu-l-axloq”da keltirishicha, bolalagidanoq Boyqaro xonadoni vakillari unga hamisha mehribonlik va g‘amxo‘rlik ko‘zi bilan qarashgan, uning ilhom nishonalariga ega bo‘lgan so‘zlarida saodatli kelajagi alomatlarini ko‘rib, o‘ta iltifot va marhamat ko‘rsatishgan [16;66].

Navoiyning mana bu fikri uning butun umrlik shiori bo‘lgan ko‘rinadi:

Har nafasing holidin ogoh bo‘l,

Balki anga hush ila hamroh bo‘l [1;262].

Ya’ni, o‘tgan har lahzangning holidan ogoh, hushyor bo‘l, uni behuda o‘tkazma!

Manbalarda keltirilishicha, Navoiy “bolalik chog‘laridan umrining oxirlarigacha barakali vaqtining ko‘p qismini ilm egallash va kamolotga erishish ishiga sarflab, bir lahza bo‘lsa-da turli bilimlarni o‘rganish va har xil ko‘nikmalarni egallashdan tinmagan” [16;77].

Albatta, bolalikdan ilmga, va kamolotga intilish tezda o‘z mevasini bera boshlagan. Buni barchamizga tanish bo‘lgan, ko‘plab manbalarda takror-takror keladigan quyidagi voqea ham tasdiqlaydi:

Ungacha hech kim turkiy tilda undan ko‘proq va yaxshiroq she’r yozmagan Mavlono Lutfiy kunlardan bir kuni endigina unib-o‘sib borayotgan va yaxshi-yomonni ajrata boshlayotgan yosh Navoiyning huzuriga borib, undan: “Biror g‘azal o‘qib berish orqali o‘z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan meni bahramand eting, – deb iltimos qiladi. “Orazin...” deb boshlanuvchi g‘azalni eshitgach, “Xudoga qasam ichib aytamanki, agar iloji bo‘lganida edi, o‘zimning o‘n-o‘n ikki ming baytdan iborat bo‘lgan turkiy va forsiy g‘azallarimni birgina ushbu g‘azalga almashtirgan va ushbu ayirboshlash natijasini katta muvaffaqiyat deb hisoblagan bo‘lardim” – deya e’tirof etadi [16;89].

Fikrimizcha, bu kichik lavhadan bir necha muhim xulosalar kelib chiqadi:

Birinchidan, XV asr jamiyatida adabiyotga, so‘z san’atiga e’tibor baland bo‘lgan;

Ikkinchidan, oqsoqol shoirning yosh ijodkor xonadoniga uning she’rlari bilan tanishish uchun tashrif buyurishi shuni anglatadiki, Lutfiy haqiqatda taxallusiga munosib, iltifotli siymo bo‘lgan;

Uchinchidan, Navoiy o‘smirlik chog‘idayoq qalami o‘tkir shoir sifatida kamolga yetgan;

To‘rtinchidan, yirik ijodkorlar yosh qalamkashlar ijodiga befarq bo‘lmagan va ularni imtihon qilib turgan;

Beshinchidan, Lutfiy Navoiy siymosida o‘zidan keyin turkiy adabiyotning munosib davomchisini ko‘ra olgan;

Oltinchidan, Lutfiy yosh ijodkorga yuqori baho berish orqali uni yanada ruhlantirish, rag‘batlantirish hamda adabiyot ahli ichida nufuzini ko‘tarishni maqsad qilgan;

Yettinchidan, balki ayni shu va shu kabi holatlar Navoiyning keyinchalik yuzlab yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlashiga sabab, ilk saboq bo‘lgan.

Bu noyob iste’dod hamda go‘zal xulq-atvor Navoiyga butun umr tahsin va maqtov yog‘dirgan [7]. Yigitlik chog‘larida Samarqandda “Ikkinchi Abu Hanifa” laqabini olgan faqih Xoja Fazlulloh Abullays qo‘lida ta’lim olar ekan ustozi doimo uning tabiatidagi oliyhimmatlikni maqtar va uni boshqa talabalardan ustun ko‘rgan ekan [16;78].

“Saddi Iskandariy”da shunday bayt keladi:

Birovkim anga himmat o‘ldi baland,

Erur olam ahli aro arjumand [3;87].

Ya’ni, “kim baland himmatli bo‘lsa, u odam olam ahli orasida aziz bo‘lur”.

Ko‘rinadiki, Navoiy o‘zgalarga nasihat qilgan fazilatlarga avvalo o‘zi sohib chiqqan va ijodi orqali o‘zida bo‘lgan oliyjanob sifatlarni o‘zgalarda ham ko‘rishni orzu qilgan.

Bu ulug‘ siymoning ana shunday yuksak fazilatlaridan yana biri ilm ahliga e’tibori edi. Navoiy “Farhod va Shirin”da ilm ahliga nisbatan ko‘zqarashini yaqqol ochiqlaydi:

Birovkim qilsa olimlarg‘a ta’zim,

Qilur go‘yoki payg‘ambarg‘a ta’zim [2;718].

Zamondoshlarining eslashicha, “Tasavvuf va iymon ahlining qiblasi bo‘lgan ushbu zot ... mashhur olimlar va hurmatga sazovor fozillarning obro‘-e’tiborini oshirish va martabalarini

yuksaltirishga qo‘lidan kelganicha g‘ayrat va himmat ko‘rsatdi hamda talabalarning xotirjam va bemalol ta’lim olishlari uchun ularga nafaqalar tayinlab, madrasalar va xonaqohlar qurdirdi [16;80].

Shafqat, g‘amxo‘rlik – Navoiy ma’naviyatini bezagan sifatlardan yana biridir. Bu borada, albatta, allomaning

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q, xalq g‘amidin g‘ami [1;210]. –

degan mashhur satrlari yodga keladi. Bunda shoir Xoliq tomonidan xalq qilingan, ya’ni yaratilgan barcha jonzodlarga g‘amxo‘rlik qilish sifati bilan xulqlanish kerakligini insonlikning sharti sifatida qo‘yadi. Albatta, uning o‘zi shaxs sifatida bu borada ham barchaga o‘rnak bo‘la olgan. Jumladan, Xondamirning hikoya qilishicha, bir kuni Navoiy asr namozidan keyin har kunlik odatiga xilof ravishda, ya’ni namozga kelmaganlarni surishtirmasdan, masjiddan shoshib chiqib ketadi. Qaytib kelgach, bu holning sababiga qiziqqanlarga javob berishicha, namoz vaqtida tahorat qilgan joyidan etagiga bir chumoli ilashganini payqab qolgan va unga jabr-zulm qilib qo‘yishdan qo‘rqib, o‘z uyasi yoniga tashlab kelgan [16;157].

Ma’lumki, Navoiy qator lavozimlarda ham faoliyat yuritgan. Biroq “ulug‘vor qalbining faqr va fano sulkidan yurishga moyil ekanligi” sababli mansab va lavozimlardan har safar bosh tortgan, Sultonning qattiq turib iltimos qilgani uchungina amirlik, vazirlik kabi mansablarga qadam qo‘ygan. Va bunday holatlarda ham, avvalo, “Bir soat qilingan adolat oltmish yillik ibodatdan afzaldir” hadisini mulohaza qilib, adolatli ish tutish orqali ko‘proq savobga erishishni maqsad qilib qo‘ygan [16;119]. “Hayratu-l-abror”dagi mana bu satrlari buning isbotidir:

Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil [1;275].

“Makorimu-l-axloq”da Navoiy qurdirgan 23 masjid nomi sanaladi, bundan tashqari, o‘zi qurdirgan barcha madrasalar, xonaqohlar va rabotlarda ham masjidlar barpo etgani keltiriladi. Xondamir Navoiyning Hirot jome’ masjidini qaytadan qurdirgani haqida so‘z yuritganda “aksar hollarda etagini qayirib boshqa ishchilar qatorida ishlardi” deya xotirlaydi. Shoir “Badoyi’u-l-bidoya”ning Debochasida shunday deydi:

Tuxm yerga kirib chechak bo‘ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo‘ldi.
Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmu?!
Pilla qurticha himmating yo‘qmu?!

Ya’ni, “Oddiy bir tuxum yerga kirgach, go‘zal gulga aylanib kishilarning ko‘zini quvnatadi; oddiygina bir qurt ham jonidan kechib bo‘lsa-da, odamlarga qimmatbaho ipak to‘qib beradi. Ey inson, senda lolaning tuxmichalik g‘ayrat, pilla qurtichalik himmat yo‘qmi?! Shu jonzotlarchalik ham bo‘lolmaysanmi?!” Bu misralar mazmunini chuqur anglash uchun sababning sababiga ham e’tibor qaratish lozim [8]. Negaki, Rumiy aytganlaridek, “besababdin sabab ham bo‘lmas paydo”. Avvalo, “tuxum nega yerga kiradi?” savoliga javob topmoq lozim. Javob: Muhabbat tufayli. Chunki muhabbat so‘zi “hibba” o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib, *ustiga tuproq tortilgan urug‘* ma’nosini anglatadi. Tuxum yerga kirsa, ya’ni ustiga tuproq tortilsagina gul bo‘la oladi. Demak, tuxumning muhabbati borligi uchun ham yerga kirgan va go‘zal gulga aylana olgan! Shunday ekan, insonda g‘ayrat, himmat, bunyodkorlik bo‘lmog‘i uchun, avvalo, muhabbat bo‘lishi lozim! [5] Navoiyda Allohga, Uning yaratiqlariga nisbatan cheksiz muhabbat bor edi. Bu muhabbat uni mislsiz xayrli ishlarga boshladi [6]. Ulug‘ mutafakkirning ana shunday

ulug‘ ishlaridan bir – insonlar, xalqlarni birlashtirish, ularni birlikka, hamjihatlikka chorlashdir. Navoiy, avvalo, hayoti mobaynida butun xalqni, qolaversa, butun turkiylarni birlashtirishga harakat qildi. Navoiyning bu boradagi xizmatlari mana bu voqe’likda yaqqol ko‘rinadi: u bir safar haj ziyoratiga ketmoq uchun hukmdordan ijozat so‘raganda, sulton Husayn Boyqaro shunday deydi: “Aniq bilamanki, bu mamlakat sizning muborak vujudingizdan xoli bo‘lsa, yuqori va quyi tabaqalarga mansub bo‘lgan kishilarning barcha toifalari va guruhlarining hayotida notinchlik va beqarorlik yuz beradi” [16;142]. Shoir ijodida ham ana shu hamjihatlik, birlik g‘oyasini kuyladi va qalami bilan turkiylarni birlashtirdi – yakqalam qildi. Bu haqiqat shoirning quyidagi baytlarida yorqin aks etgan:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham [2;730-731].

Navoiyning nomi abadiyatga muhrlanishida uning kamtarinlik, xokisorlik va taqvodorlik kabi insoniy fazilatlari ham katta rol o‘ynagan [16;130]. Bejizga uning muhriga “Dunyoda g‘aribdek yoki bir yo‘lovchidek bo‘lgin! Faqir Alisher” [17;30], deya yozilmagan. U butun umri davomida “Faqirligim faxrimdir” hadisiga amal qilgan. Mirxondning “Ravzatu-s-safo” asarida keltirilishicha, Navoiy muhrdorlik ishiga kirishgach, ilk bor farmonga muhr bosish marosimida shunday hol ro‘y beradi: Barchaning xayolida Navoiy barcha amirlardan yuqoriga muhr bosadi degan o‘y aylanardi. Biroq u shunday bir joyga muhr bosadiki, biror kishi undan quyiroqqa muhr bosa olmasdi. Bu holatni Mirxond shunday tasvirlaydi: “ul janobning qo‘liga ma’lum soatda muhr bossin uchun nishon berganlarida nafsi siniq bo‘lganidan va bag‘oyat ulug‘ tavozuliligidan nishonning shunday joyiga muhr bosdikim, undan tubanroqqa muhr bosishga joy qolmadi” [15;36]. Bu voqea barchaning Navoiyga nisbatan ixlosini bir necha baravarga oshiradi, hatto Navoiy muhr bosgan yer keyinchalik mansabdorlar orasida talash bo‘ladi, ularning har biri o‘sha yerga muhr bosish ishtiyoqida bo‘ladilar.

Axloq – inson javhari. Bu javharning eng katta raqibi, yemiruvchisi nafsdir. Yuqoridagi voqelik ulug‘ mutafakkir nafsning qanday kuch ekanini yaxshi bilganini ko‘rsatadi:

Debsabu sayha chekib andoqki pil,
Changaki nafs ollida xoru zalil [1;118].

Shu sababdan umri mobaynida nafs bilan qattiq kurashgan. “Katta qudrat egasi bo‘lgan Sohibqirondan o‘ziga nisbatan bo‘lgan inoyat va mehribonchiliklarning kundan-kunga ortib borayotganini ko‘rganida xilvat bir joyga borar, boshyalang bo‘lib, muborak boshining tepasidan bir oz tuproq sochar va nafis tanasiga qarata shunday derdi: – Bu dunyodagi yuqori mansab va martabalarga yetishganingdan manmanlik va kibrga berilib ketmagin. O‘zingni yo‘ldagi bir tuproq bilib, imkoni boricha qashshoqlar va miskinlarning ehtiyojlarini qondirish va ularga yordam berishga harakat qilgin” [16;164].

Xondamir Navoiy haqida so‘z yuritganda, unga “Boshqalarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, sifat va pok niyatli, saltanatning ustuni va mamlakat tayanchi, xoqonlik

davlati suyanchig‘i va hazrat sultonning yaqin kishisi” deb ta’rif beradi [16;64]. Bu tansiqu-s-sifotlar naqadar haqiqatga asoslanganini Navoiyning nurli hayot yo‘li to‘la tasdiqlaydi [9, 10].

Navoiy fazilatlarini hali uzoq davom ettirish mumkin. Biroq fikrimizni ulug‘ mutafakkir umrining so‘ngida ro‘y bergan bir voqelikka diqqat qaratish bilan yakunlaymiz.

Ma’lumki, hazrat Navoiy hayotining so‘ngi paytlarida Husayn Boyqarodan “qolgan umrimni Ansoriyning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o‘tkazishimga ... ruxsat bersangiz” deya izn so‘raydi va shu ish bilan bir muddat mashg‘ul bo‘ladi [16;142]. Bunga guvoh bo‘lgan minglab hirotliklar mazkur ishni o‘zlariga odat qilib olishadi. Fikrimcha, bu hodisada bir ramziylik bor.

Turk olimi Edhem Jebejio‘g‘luning keltirishicha, tasavvuf ta’limotida “Jorubi lo”, ya’ni “lo supurgisi” tushunchasi mavjud. Bu iboradagi lo kalima-i tavhiddagi lo bo‘lib, u o‘zi duch kelgan barcha butlarni tozalaydigan va supurib tashlaydigan supurgiga o‘xshatiladi. U qalbdagi “butlar”ni tozalaydi. Ya’ni bu supurgi qalbda Ollohdan o‘zga nima bor bo‘lsa, ularga oid sevgi va rishtalarni supurib tashlaydi, yo‘q qiladi. Lo ba’zida hazrati Ibrohimning butlarni sindirib tashlagan boltasiga ham o‘xshatiladi [13;59].

“Jorubkash” atamasi esa Payg‘ambar (s.a.v.) qabrini supuruvchi kishi uchun ishlatiladi. Tasavvufda u tariqat shayxlari uchun ham atama bo‘lgan. Shayxlar murid (shogird)larining qalblarida Xudoga yetib borishga to‘sqinlik qiladigan yetmish ming pardani supurib tashlaganliklari uchun ularni “supuruvchi” deb atashgan. Xonaqohlar, qabrlarni supurish shundan qolgan [13;71].

Qolaversa, so‘fiylikka asoslangan ba’zi diniy guruhlarda (alaviylar) ibodat marosimlaridagi 12 xizmatchidan (1-Murshid, 2-Pir, 3-Xalifa, 4- Chirog‘chi, 5-Zokir, 6-Nazoratchi, (ikkiga bo‘lingan: Tashqarida, Ichkarida kuzatuvchi) 7-Tariqchi, 8-Jamiyatboshi, 9-Saqqo (Suvchi), 10-Naqib, 11-Farrosh (Supuruvchi), 12-Hodim (Xizmatkor) o‘n birinchisi jorubkash hisoblanadi [13;268].

Xulosa qilib aytganda, Hazrat Alisher Navoiy nafaqat betakror ijodi bilan, balki oliyjanob xulq-atvori, go‘zal axloqi bilan asrlar davomida qalblarimizni minglab illatlardan poklab kelayotgan ulug‘ piri komildir!

Адабиётлар/Литература/References:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. TAT. 10 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 812 b.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. TAT. 10 jildlik, 6-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 812 b.
3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. TAT. 10 jildlik, 8-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 704 b.
4. Авазназаров О.Р. Алишер Навоий достонларидаги йўл, йўловчи, сафар ва манзил талқинларида бадиий тушларнинг роли. “Alisher Navoiy” xalqaro jurnali. – 2022. – № 3. – Б.44–57.
5. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the Navoi’s literary and historical mission. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 9 / Issue: 3 / – Macedonia, 2020. – P.10–17.
6. Авазназаров О.Р. Навоий лирикасида май тимсоли. Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2019. – № 1. – Б. 163–170.

7. Нуриддинов Ш.Б. Авазназаров О.Р. Эпизоды сна в поэме Алишера Навои «Семь планет». Молодой ученый, 2015. – С.942-944.
8. Авазназаров О.Р. Соқий образи генезиси. – Урганч: Ilm sarchashmalari, 2019. – № 11. – Б. 71–75.
9. Avaznazarov O.R. Moddiy ashyodan – poetik obrazga. Til va adabiyot ta’limi. – 2019. – № 4. – Б. 39–40.
10. Avaznazarov O.R. “Farhod va Shirin”da yo‘lovchi obrazi va badiiy tush aloqadorligi. Респ.онлайн илм.амал.конф. 5-январь 2021. – Бухоро. 15–18-б.э
11. Avaznazarov O.R. Yo‘lovchi obrazi taqdirida badiiy tushning o‘rni (“Layli va Majnun” dostoni misolida). – Тошкент, 2021. 387-390 б.
12. Avaznazarov O.R. Yo‘l obrazi tadqiqiga doir ba’zi mulohazalar. Tez. Resp. Ilm.konf. 20–21-may 2021. – Qarshi, 2021. 102-103-b.
13. Cebecioğlu E. Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü. – Istanbul: Ağaç kitabevi yayinlari. 2009. – 741 s.
14. Muhyiddin Ibn. Arabi. Tefsir-i kebir / Te’vilât (2. Cilt). – Istanbul, Kitsan Yayınları. –1514 s.
15. Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Аҳмедов. – Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 1985. – 224 б.
16. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 372 б.
17. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусанхон Яҳё Абдулмажид. “Навоийдан чу топқайлар навое”. – Т.: “Hilol-Nashr”, 2014. – 240 б
18. Фалсафа: қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: “Шарқ”, 2004. – 384 б.

ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: https://scienceproblems.uz

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/1 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Special Issue

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).